

“Zamonaviy sivilizatsiya barqarorligiga tahdid solayotgan eng muhim muammo nima?”

Qadimgi sivilizatsiyalar o'choqlari asosan daryo bo'ylari, yirik shaharlar va aholi zich joylashgan yerlarda paydo bo'lgan. Ular davlatlarga aloqalar va ma'lum bir foyda, qulaylik va ehtiyoj imkoniyatlar uchun asos sifatida tilga olinadi. Turli yozuv ixtirolari (Shummer mixxati), papiros kabi yozuvlar o'zaro aloqalarni barqarorlashtirish va bir-biri bilan qulay hamkorlik o'rnatish uchun xizmat qilgan.

Buyuk Ipak yo'li sivilizatsiyasi, La'l yo'li karvon yo'llari nafaqat mahsulot xomashyo tashish balki madaniyat va din uzviyligini ham ta'minlagan.

Bugungi kunda yorug'lik tezligida rivojlanib borayotgan olamimiz sivilizatsiyasi nimalarga xizmat qilmoqda?!

Biz imkoniyatlardan nechog'liq to'g'ri foydalana olyapmiz?!

Kunlik ehtiyojimiz jihatdan turli gadjetlar, mobil telefon va texnologiyalarga tez-tez va muntazam ishimiz tushib turadi.

Ularsiz hayotimizni tasavvur qilib bo'lmaydi xatto.

Raqamli zamon sharoitida istiqomat qilar ekanmiz biz ham bilvosita o'sha ta'sir doiralardan foydalanishga va o'rganishga majburiy.

Har qanday sivilizatsiyalar ma'lum bir maqsad uchun xizmat qilgan. Maqsadlar esa yutuqlarga kelajakdagi katta marralarga yetishtirishga ixtisoslashgan.

Hozirgi hayotimizga nazar tashlasak, ijtimoiy tarmoqlar nimaga xizmat qilishi kerak edi va nimaga xizmat qilmoqda?!

Yoshlar va o'rta yosh toifasi orasida ijtimoiy tarmoqlarga turli kontent joylash axborot almashinuvi va axborot qabul qilish, muntazam yangiliklardan xabardor bo'lish uchun, o'zaro aloqalar, dunyo nigohini kuzatish imkoniyati uchun ishlab chiqilgan.

Uyimizda uchraydigan smart televizorlar va wi-fi tarmoqlari ma'lumotlarni tezroq va sifatli yetkazish uchun foydalaniladi.

Televideniya yoki yangicha ochiqlik va xalqaro miqyosdagi erkinlik, shaffoflik va soflik uchun yaratilgan.

Biz erk deb dunyoga jar solar ekanmiz, aslida bizning miyalarimiz uchun erk tushunchasi o'ta yovvoyi ahvolga kelib qolgan. Hayvonlarda farqli o'laroq, bani Bashar atalmish mavjudotlar gultoji inson qilayotgan bugungi ishlar hechqaysi tarmoqqa ham hechqaysi hayvon ongiga ham sig'maydi.

Dunyodagi barcha tanazzullar mantiqsizlik va tiyiqsizlik oqibatidan, haddidan oshish va maqsadsizlikdan ortidan kelishi tayin.

Demokratiya ha, bu xalq hokimiyati lekin bu o'zingni har kuyga sol, bilganingni qil degani emas. O'zingni angla, o'zgalarning yomon ta'siridan nari bo'l, erkin va madaniyatli shaxs sifatida yuksal, o'zligingni o'ngla degani bo'lsa ajab emas.

Texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari insonlar madaniyati uchun vosita, yuksalish uchun shohsupa, huquq va manfaatlarini teng ushlash uchun katta xalqaro maydon.

Ulardan siz qanchalik to'g'ri foydalanyapsiz?!

Ertaga tongdan qo'limizga telefon olib, 2 soat kontent ko'rish, ular ichida tuturiqsizlari bo'lishi achinarli. Vaqtning g'oyibdan o'g'irlanishi. Kuning noto'g'ri boshlanishi, sog'liq jihatdan xushyorsizlik va kortizol oshishi.

Biz izlayotgan ma'lumotlar ichida turli rusumdagi reklamalar xalaqit berishi, instagram sahifasida bema'ni g'oyalar kishini uzluksiz maqsaddan chalg'itib yuborishi bugungi o'sib kelayotgan yosh avlod ongi shuurini zaharlayapti. Onalarning bolalariga befarqligi telefon bilan, televizordagi betayin multfilmlar bilan ovutishi shular jumlasidan.

Qalampir.uz sahifalaridan birida: "Internetda jinsiy zo'ravonlikka duch kelayotgan o'smirlar soni tobora ortib, har beshinchi 12-17 yashar bola bunday holatga uchramoqda. Bu haqda UNICEF hisobotiga tayanib, "Deutsche Welle" xabar berdi.

Qayd etilishicha, UNICEF 21 ta davlatda qariyb 21 ming nafar internetdan muntazam foydalanuvchi yoshlar o'rtasida so'rov o'tkazgan. Tadqiqotda 12-17 yoshli o'smirlar ishtirok etgan. So'rov natijalariga ko'ra, 15 milliondan ortiq bola internetda xohishidan tashqari jinsiy mazmundagi kontentga duch kelgan.

Taxminan 9 million nafar bola jinsiy mazmundagi suhbatlarga majburlangan yoki shaxsiy suratlarini yuborishga undalgan. Yana qariyb 4 million nafar bolaning jinsiy mazmundagi suratlari ularning roziligisiz tarqatilgan-"deb yozilgan axborot o'qidim. Bu meni judayam yomon ahvolga soldi.

Demak, ixtirolar bizga manfaat o'rniga ziyon keltiryaptimi? Yoki biz ulardan maqsadsiz va noto'g'ri foydalanyapmizmi?!

Farzandlar, murg'ak bolalar qalbini beg'ubor ongini zaharlovchi filtrsiz internetdan judayam erta va loqayd ota-onalar nazoratisiz ishlatishlari butun bir insoniyat oldida fojialar boshlanishi aslida.

Televideniye kanallarida efirga uzatilayotgan axborot va kinolar qayta -qayta ishlanishi, hamin qadar 22:00gacha kattalar hayotiga oid kinolarni cheklashlarini xohlardim.

Ota -onalar ham markasiz yoki farzandlari yonida katta marka yoshida kino ko'rsatuvlar ko'rmasliklari kerak.

Biz dunyo tamaddunida maqsad bilan yashar ekanmiz nafaqat o'zimiz balki butun bashariyat uchun ham javobgarmiz.

Biz faqatgina o'tmish ajdodlarimizdan faxrlanib emas, ularga munosib bo'lib yetishayotganligimizdan farxrlansak arziydi.

Behudaga, besamar, ijtimoiy tarmoqlarda yoshlar ongini zaharlamasdan foydali kontent odobini o'rganishimiz shart.

Biz tariximizdanda zalvorli tarix yaratish uchun harakatdan to'xtamasligimiz maqsadning eng oliysi.

Har bir ilm yo'lidagi izchil, farosatli inson o'zini tashqi zarardan himoyalaydi.

Hali suyagi qotmagan, miyasi plastilin kabi bo'sh murg'ak jonlar uchun ommaviy axborot vositalarida madaniyatli ma'rifatli bo'lishga majbur va burchlimiz.

Maktab yoshidagi, nafaqat tolibi ilmlar uchun ijtimoiy tarmoqlarni cheklashni tavsiya bergan bo'lardim.

Sivilizatsiya yaratish uchun Chexovning "Garov" hikoyasidagi yurist kabi ilm olish eng to'g'ri yo'l balki. Majoziy uqigan har bir mutolaachi anglaydi buni.

Istardimki, har bir mobil telefon egasi, har bitta ota -ona, har bitta ilm olishga hechqachon chalg'imaslikka va'da bergan, o'z hayotiga befarq bo'lmagan har bitta yosh avlod, har bitta kinorejissor, televideniye olami, har bitta madaniyat uchun javobgar shaxslar nazoratni mahkam tutishlarini, mas'uliyat so'ziga qalban yondashishlarini istab qolardim.